

SIYOSIY NUTQ TARJIMASI, MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Djumali Kazimovich Shabanov

Alfraganus universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarjima va sinxron tarjima haqida o'z fikrlarimizni bildirishga harakat qildik. Tarjimaning juda qadimgi san'at ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin bu kasbning o'ziga yarasha muammolari, qiyinchiliklari ayniqsa, juda katta ma'suliyati borligini ba'zan unutamiz. Maqolamiz mavzusi bo'lgan siyosatchilar nutqini tarjima qilishda esa bu ma'suliyat o'n chandomdan ortadi. Ushbu maqolada biz Turkiya, O'zbekiston hamda Ozarbayjon davlat rahbarlarining nutqlarini tarjima qilishdagi ba'zi bir misollarni keltirishga harakat qildik. Tarjimadagi muammolar va ularning yechimini topishga harakat qildik. Maqolada urg'u berilganidek bir tildan ikkinchi tilga tarjima qiluvchi mutaxassis har ikki tilni mukammal bilishi, u davlatlarning tuzumini, urf-odatlarini, siyosati va iqtisodini madaniyati va adabiyotini chuqur egallashi kerakligini ifodalashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Tarjima, Tarjimon, Sinxron tarjima, siyosat terminlari, siyosatchi nutqi, aldamchi so'zlar, tarjimada aldamchi so'zlarni tarjima qilish, so'zlarning semantikasi, Grammatik tizim va tuzilish, Leksik qatlam.

ПЕРЕВОД ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ, ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ АННОТАЦИЯ

В этой статье автор излагает свои мысли о переводе, в частности синхронном переводе. Всем известно, что перевод – очень древнее искусство, но в этой профессии есть свои проблемы и трудности, особенно огромная ответственность. При переводе речей политиков, чему посвящена наша статья, эта ответственность возрастает в десятки раз. В статье автор на основе своего многолетнего опыта приводит некоторые примеры из перевода выступлений глав государств Турции, Узбекистана и Азербайджана и делает попытки найти наиболее типичные проблемы перевода и их решения. Автор подчеркивает, что специалист, осуществляющий перевод с одного языка на другой, должен в совершенстве владеть обоими языками, должен иметь знания о политике, экономике, культуре и литературе страны, её обычаях, традициях.

Ключевые слова: перевод, переводчик, синхронный перевод, политические термины, речь политика, «ложные друзья» переводчика и их перевод, семантика слов, грамматическая система и структура, лексический слой.

TRANSLATION OF POLITICAL SPEECH, PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS

ABSTRACT

In this article, we tried to express our thoughts about translation and simultaneous translation. Translation is widely known to be a very old art. However, we sometimes forget that this profession has its own problems and difficulties, especially the huge responsibility. When translating the speeches of politicians, which is the subject of our article, this responsibility increases tenfold. In this article, we attempted to give some examples from the translation of the speeches of the heads of the states, namely Turkey, Uzbekistan and Azerbaijan. We tried to find translation problems and their solutions. As emphasized in the article, we tried to express that a specialist who translates from one language into another must know both languages perfectly, he must have a deep understanding of the system, customs, politics, economy, culture and literature of the countries.

Key words: *translation, interpreter, simultaneous translation, political terms, politician's speech, misleading words, translating misleading words in translation, Semantics of words, Grammatical system and structure, lexical layer.*

KIRISH

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tarixiy qaror – "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi qonunni qabul qildi va tegishli qaror bilan 1-sentabr Mustaqillik kuni sifatida tasdiqlandi. 1991 yil 18-21 dekabr O'zbekiston respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov Turkiyaga tashrif buyurdi. O'sha vaqtda Turkiya O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi. 1992 yilda esa ikki davlat o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatdi.

O'sha davrdan boshlab ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada oshdi. 2017-yildan keyin esa bu hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilib, mamlakatlarning o'zaro ochiqligi har ikki davlat xalqlarining bir-birining madaniyati va tarixiga qiziqishi ortishiga sabab bo'ldi. Diplomatik, siyosiy, savdo va madaniy aloqalarning bunday jadalligi hamkorlik va hamjihatlikni oshiradi, bunday aloqalarning ajralmas elementi esa sinxron tarjima hisolanadi. Qadimdan tarix, til va dini mushtarak bo'lgan o'zbek va turk xalqlarining mustahkam tarixiy ildizlari, mushtarak ma'naviy qadriyatlari va urf-odatlarini mustahkam hamkorlik aloqalari bilan bog'langan va bu ikki xalq birgalikda ko'pgina tarixiy sinovlardan o'tgan. Ikki qardosh xalq o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy aloqalar katta ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, turk va o'zbek tillari hamda ularning grammatikasi, leksikologiyasi va sintaksisi ko'p umumiy jihatlarga ega. Tarjima vaqtida til va so'z

semantikasining o'xshashligi tarjimonni aldab qo'yishi mumkin. Chunki ular juda o'xshash bo'lsa-da, hali ham juda ko'p turli xil nyuanslar mavjuddir. Ushbu maqola doirasida biz o'zbek va turk tillarining grammatik tuzilishidagi asosiy farqlarni ko'rsatib, mamlakat vakillarining yuqori darajadagi uchrashuvlari uchun tarjimon tayyorlash jarayoniga to'xtalib o'tmoqchimiz, shuningdek, ushbu til juftligida tarjimon faoliyatini soddalashtirish yo'llarini taklif qilamiz. Ushbu maqolada biz asosan siyosatchilar nutqining tarjimalaridan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sinxron tarjima bilan shug'ullanuvchi tarjimon siyosat, iqtisod, madaniyat, adabiyot, urf-odatlar va ushbu tillarda so'zlashuvchi aholini juda yaxshi bilishi kerak. Qolaversa, tarjimon mukammal xotiraga, chuqur siyosiy bilimga, iste'dod va aktyorlik qobiliyatiga, ulkan tajriba va professionallikka ega bo'lishi kerak. U vaziyatni nazorat qilishi, muzokaralar mohiyatini tushunishi, kutilmagan holatlar va vaziyatlarga mohirlik bilan kirib, undan chiqishi kerak. U diplomatlik axloqini bilishi kerak. Sinxron tarjimon bo'lish har bir tarjimon uchun sharaftir, ayniqsa u siyosatchilar uchun tarjimon bo'lsa. Boshqa tomondan, bu juda mas'uliyatli va qiyin ish. Yuqoridagilarni isbotlash uchun biz misollarga o'tamiz.

“Aldamchi so'zlar” tarjimonlarga alohida qiyinchilik tug'diradi.¹

TR	UZ	Aldamchi so'zlar	Aldamchi so'zlar ma'nosi
bağimsız	mustaqil	boqimsiz	och-nochor
независимый	независимый	голодный, голодающий	голодный, голодающий
tanımak	tan olmoq	tanimoq	tanimoq
признать	признать	узнавать	узнавать

Masalan, O'zbekiston respublikasi Birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning Turkiyaga tashrifi chog'idagi voqea. (18.12.1991) O'zbekiston Prezidenti Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zal bilan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'lon qildi va O'zbekiston mustaqilligini tan olishni so'radi. Tarjimonning xatosi ikki davlat rahbarini noqulay ahvolga soldi.

Xuddi shu uchrashuvdan yana bir misol. Turkchada singarmoniya qonunini yaxshi bilmay, katta xatoga yo'l qo'ygan tarjimon "asab" (sinir) so'zini "chegara" (sınır) deb tarjima qilgan va bu ikki davlat liderlari o'rtasida tushunmovchilikka olib keldi.

¹ Проблемы синхронного перевода в языковой комбинации турецкий / русский и поиск практических способов их решения. А. А. Саркисян. Вестник МГЛУ. Гуманитарные Науки. Вып. 4 (846) / 2021.

Turkiya va O‘zbekiston davlatlari rahbarlarining oliy darajali uchrashuvlarida tarjimonning tajribasizligi tilni yaxshi bilmasligi va davlat tizimlarini yaxshi bilmasligi tarjimonlarni ancha noqulay vaziyatga solib qo‘ygan.

Bunga misol :

Tilni yaxshi bilmaslik “Ekselensleri“, “Cenabi Alileri“, “Zati alileri“, “Zati devletleri” kabi inglizcha va arabcha so‘zlardan foydalanishga majbur bo‘lishgan. Keyinchalik o‘zbek tilidagi “Hurmatli prezident” turkchada “Sayın cumhurbaşkanı“ deb tarjima qilinishi to‘g‘ri bo‘lgan. Xuddi shunday aslida har ikki tilde dastlabki vaqtlarda chiroyli ma’noga ega bo‘lgan “ağa“, “o‘g‘lan“ kalimalari bugungi kunda turkchada jargon so‘zlarga aylangan bo‘lsada o‘zbekchada asl ma’nosini saqlab qolgan. Shuning uchun o‘zbekchada o‘zbek davlat rahbarining so‘zlarini tarjima qilayotganda ushbu so‘zlarning ishlatilishi turkchaga tarjima qilinayotganda g‘alati tuyuladi. Bungungi kunga moslab “o‘g‘lan/ulan/lan“ o‘rniga “yigit“, “ağa“ o‘rniga “kardeş“ so‘zining ishlatilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek tilida ijobiy ma’noda kundalik hayotda juda ko‘p ishlatiladigan “korxona” – ish, yeri shirkat, “qavat” – pog‘ona ma’nosini anglatuvchi so‘zlar turkchada hunuk ma’no beradi. O‘zbekchada “korxona” turkchada “karhane” – foxishaxona, o‘zbekchadagi “qavat” turkchada “kavat” – qo‘shmachilarni anglatadi. Bu yerda o‘zbekistonlik bir tadbirkorning Turkiyaga borib Turk televideniyasiga bergan intervyusidan misol keltiramiz. “Men O‘zbekitonda katta bir korxonaning rahbariman, korxonam ikki qavatli binoda joylashgan. Korxonada xotinim, bolalarim, qizlarim va kelinlarim ishlaydi.” O‘zbekchani bilmagan Turkiya televideniyasi hodimlari bu gaplarni eshitib o‘zlarini kulgudan to‘xtatisha olmagan.

O‘zbek va turk tillarida shunday so‘zlar borki, ularning deyarli muqobili yo‘q. Misol o‘rnida turkchadagi “aşiret”, “kaymakam”, “belediye”, “kahya”, “kirve” bu so‘zlarni yozma tarjimada dipnot orqali bimalol izohlab berish mumkindir. Lekin sinxron tarjima davomida bir so‘z bilan ifodalashning imkoni yo‘q va uni qisqa va lo‘nda ifodalashda tarjimonlar juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Xuddi shunday o‘zbek tilidagi so‘z va so‘z birikmalari askiya, do‘ppi, “samovarda otirmoq”, “gap yemoq”, xizmat ko‘rsatgan va xalq artisti va hokazolar. Bu so‘zlarni ham turkchaga tarjima qilishda tarjimondan katta mahorat talab qiladi.

Sinxron tarjimadagi yana bir munozarali misolni Ozarbayjon lideri marhum Haydar Aliyev hayotidan keltiramiz.



Temuriylar tarixi davlat muzeyi qo'lyozmalari ko'rgazmasidan.

1999-yil Istanbulda o'tkazilgan "Yevropada xavfsizlik" sammitida Aliyev o'z chiqishlarini sof Ozarbayjon tilida boshladilar. 1999-yil 18-19-noyabr kunlari Turkiya Respublikasida Istanbul Xavfsizlik Kengashi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbulda bo'lib o'tgan sammitida XXI asrda Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash tamoyillari belgilab olindi. Ushbu tarixiy sammitda Ozarbayjon xalqining milliy yetakchisi Haydar Aliyev ham ishtirok etdi va nutq so'zladi. 54 davlat ishtirok etgan sammitda alifbo tartibiga ko'ra ro'yxatning boshida Ozarbayjon prezidentining nutqi joy oldi. Haydar Aliyev ozarbayjon tilida nutq so'zladi. Tarjimon ozarbayjon tilini bilmaganligi, aslida turk tili tarjimoni bo'lganligi uchun Janob Aliyevning "Mən danışiramki" deb boshlagan nutqini "Men aytmoqchimanki" (Я хочу сказать) deb to'g'ri tarjima qilmasdan xatoga yo'l qo'yib, "Men maslahat bermoqchiman" (Я вам советую) shaklida tarjima qilgan. Ushbu holat noxushlikka sabab bo'lgan. Kichkina bir davlat rahbarining Amerika, Angliya, Rossiya kabi gigant davlatlarga maslahat berishi g'ayritabiyy holat bo'lgan. O'shanda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov meni o'zining maslahatchisi Qahramon Rustamovich Rahmonov bilan "Ozarbayjon tilini bilasiz, tarjimoni bajaring", deb tarjimonlar xonasiga jo'natdi va men janob Haydar Aliyevning nutqini turk tiliga o'girdim. Sammitdagi tanaffus vaqtida Ozarbayjon

delegatsiyasidan Abbos Abbosov (Ozarbayjon Respublikasi tashqi ishlar vaziri) menga Aliyev nomidan minnatdorchilik bildirdi.²

Ozarbayjon liderining nutqini tarjima qilishdagi yana bir misol. Bu misolni 2023 yil Toshkent “Niso Poligraf” nashriyotida chop etilgan “Haydar Aliyevdan 100 hikmat” nomli kitobdan oldik.

Ozarbyajon tilida:

Dövlət iki halda sarsıla bilər: günahkar cəzasız qalanda və günahsız cəza veriləndə.

O‘zbek tilida:

Davlat ikki holatda larzaga kelishi mumkin: aybdor bejazo qolganda va begunoh jazolanganda.

Turk tilida:

Devlet iki durumda sarsılabilir: suçlu cezasız kaldığında ve suçsuz cezalandırıldığında.³

Ozarbayjon tiliagi “Sarsıla bilər” so‘zi, turkchada “sarsılabilir” ni o‘zbek tiliga “larzaga kelishi mumkin” deb tarjima qilingan. To‘g‘ri tarjimasi esa “tanazzulga yuz tutishi mumkin” bo‘lishi kerak edi.

Davlat ikki holatda tanazzulga yuz tutishi mumkin: aybdor bejazo qolganda va begunoh jazolanganda.

Xuddi shu kitobdagi ikkinchi misol:

Ozarbyajon tilida:

Gərək nəbzın vətənin nəbz ilə vursun .

O‘zbek tilida:

Kerak nabzing Vatan nabzi bilan ursin.

Turk tilida:

Nabzınız Vatan’ın nabzı ile birlikte atmalıdır.⁴

Ozarbayjon tilidagi “vursun” so‘zi, turkchada “atmalıdır” ni o‘zbek tiliga “ursin” deb tarjima qilingan. “Nabz” so‘zi “nafas” ma’nosini anglatgani uchun “ursin” fe’li bu yerda noo‘rindir. “Nafasingiz vatan nafasi bilan ursin“ emas, “vursun” so‘zi “hamnafas bo‘lsin” deb tarjima qilinishi kerak edi.

Qalbingiz Vatan nafasi bilan hamnafas bo‘lsin

²“O‘zbek xalqining buyuk do‘sti”. Jumali Shabanov. Ozarbayjon Slovyan universiteti. Ozarbayjon. May 2023-yil.

³“Haydar Aliyev 100 hikmat”. 11-bet. Toshkent. 2023.

⁴“Haydar Aliyev 100 hikmat”. 33-bet. Toshkent. 2023.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, siyosatchilarni nutqini sinxron tarjimaga o'girishda ancha muammolar bor. Bu muammolarni bartaraf etish uchun nimalar qilishimiz kerak:

1. Hali hanuzgacha o'zbekcha-turkcha, turkcha-o'zbekcha mukammal ishga yaraydigan lug'atlar yo'q, borlari ham eng ko'p sakkiz ming so'zdan iborat. Eng kamida 50-60 ming so'zlik o'zbekcha-turkcha, turkcha-o'zbekcha lug'at yaratilishi kerak.

2. Alohida o'zbekcha-turkcha, turkcha-o'zbekcha siyosiy terminlar lug'atini ham yaratish kerak.

3. O'zbek tilidan siyosiy sinxron tarjima bilan shug'ullanuvchi kishini Turkiyaga imkon doirasida Tashqi ishlar vazirligiga yoki Turkiya Parlamentiga va Turkiyada siyosiy sinxron tarjima bilan shug'ullanuvchi kishini O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligiga, O'zbekiston Parlamentiga va O'zbekiston Senatiga eng kamida ikki oyga va o'sha tarjimonlarni har yili bir marta 15, 20 kunga stajirofkaga yuborish kerak.

4. Siyosiy sinxron tarjimonlarini guruhda 5 yo 6 kishilab emas, balki alohida bir-ikki kishini tanlab tayyorlash kerak.

Yuqoridagi muammolar albatta hammasi emas. Lekin o'ylaymizki, shu muammolar o'z yechimini topsa, siyosatchi nutqini tarjima qilishdagi xatolarimiz anchaga kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Проблемы синхронного перевода в языковой комбинации турецкий / русский и поиск практических способов их решения. А. А. Саркисян. Вестник МГЛУ. Гуманитарные Науки. Вып. 4 (846) / 2021.
2. "O'zbek xalqining buyuk do'sti". Jumali Shabanov.
3. Ozarbayjon Slovyan universiteti. Ozarbayjon. May, 2023-yil.
4. "Haydar Aliyev 100 hikmat". Toshkent. 2023.
5. <https://www.youtube.com/watch?v=DUGy8LpHd4k>
6. https://www.youtube.com/watch?v=9OCJ3U_ALrY
7. Выставка рукописей Государственного музея истории Тимуридов.